

QORAQALPOG‘ISTONDAGI EKOLOGIK VAZIYAT VA MO‘YNOQ BALIQ-KONSERVA KOMBINATNING FAOLIYATI (1970-1980- YILLARDA)

Bekimbetov Konisbay Mirzabayevich, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpog gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti

THE ECOLOGICAL SITUATION IN KARAKALPAKSTAN AND THE ACTIVITIES OF THE MOYNAK FISH CONSERVE COMBINE (IN THE 1970-1980S)

Bekimbetov Konisbay Mirzabayevich, Karakalpak Research Institute of Humanities of the Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУЙНАКСКОГО РЫБОКОНСЕРВНОГО КОМБИНАТА (В 1970 – 1980 - ГОДЫ)

Бекимбетов Конисбай Мырзабаевич, Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан

Annotatsiya: Orol dengizining ikki metr dan ortiq sayozlashgani sababli Mo‘ynoq va Qozog‘iston ko‘rfazlarida kema qatnovi to‘xtatilganini, buning natijasida Mo‘ynoq baliq-konserva kombinatining barcha baliq zavodlari sanoat hududlaridan uzilib qoldi. Faqat Amudaryo quyi oqimida joylashgan ko‘llardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: Mo‘ynoq baliq konserva kombinat, baliqchilikni rivojlantirish, suv havzalar, orol dengizi, avtorefrigerator, ekologik holati, baliq zavodlari, gipofiz.


Abstract: Due to the Aral Sea’s water level dropping by more than two meters, shipping in the Muynak and Kazakhstan bays was suspended. As a result, all fish processing facilities of the Muynak Fish Canning Plant were cut off from industrial zones. Only lakes located in the lower reaches of the Amu Darya river were utilized.

Keywords: Muynak Fish Canning Plant, fish farming development, water bodies, Aral Sea, refrigerator, ecological condition, fish factories, pituitary gland.

Аннотация: В связи с обмелением Аральского моря более чем на два метра было приостановлено судоходство в заливах Муйнак и Казахстан, в результате чего все рыбозаводы Муйнакского рыбоконсервного комбината оказались отрезанными от промышленных зон. Использовались только озера, расположенные в низовьях Амударьи.

Ключевые слова: Муйнакский рыбоконсервный комбинат, развитие рыбоводства, водоемы, Аральское море, авторефрижератор, экологическое состояние, рыбозаводы, гипофиз.

KIRISH. 1970-yillarning boshlarida davlat qaramay, ekologik vaziyat keskin yomonlasha organlari baliqchilik sanoatini xomashyo bilan boshladi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ta‘minlash masalasini hal qilishga urinishlariga baliqlarni muhofaza qilish davlat inspeksiyasi



<https://orcid.org/0009-0006-0445-1206>

e-mail:

kunus_bekim@mail.ru

Amudaryo suvining sathi yildan yilga pasayib borayotgani, shu sababli kichik ko‘llar qurib borayotganini ma‘lum qildi: “Bundan tashqari, To‘rtko‘l tumanida Qirqqiz massividagi yangi yerlar jadal o‘zlashtirilmoqda. Natijada Qirqqiz ko‘li yo‘q qilindi, amalda “Qirqqiz” davlat xo‘jaligi hududida 200 gektar qoldi. Nukus tumanidagi Xo‘jako‘l-1 ko‘liga so‘nggi ikki-uch yil davomida Amudaryodan suv kelmayapti, parrandachilik fabrikasi direksiyasi va Berdaq nomidagi paxtachilik sovxozi o‘z nasoslaridan suv berishni qat‘iyan rad etmoqda” [2:53].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ushbu maqolani yozishda asosan arxiv materiallardan, tarixiy-qiyosiy va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

NATIJALAR. 1960-yillar boshida “O‘zbekribvod” (Baliq resurslari va ularning ko‘payishini muhofaza qilish komissiyasi) tashkil etilgan. U baliq yetishtirish uchun suv havzalari va baliq resurslaridan optimal barqaror foydalanishni ta‘minlash maqsadida ularni muhofaza qilish vazifasini bajarardi. Shu bilan birga baliq ovlashga ruxsatnomani berish huquqiga ega bo‘lgan. “O‘zbekribvod” O‘zbekistonning barcha viloyatlarida va QQASSRda o‘z bo‘limlariga ega edi. Ushbu komissiya suv havzalarining murakkab ekologik holatiga qaramay, 1970-yillarning boshlarida Qorateren, Ko‘kshiyel, Jaupirko‘l, Ilmenko‘l, Serko‘l, Kopakliko‘l, Qoraqampir, Jekenli, Qumjiqan, Madiyarko‘l, Ko‘ptenko‘l va boshqa ko‘llardan baliq ovlashga ommaviy ravishda ruxsatnomalar berdi. Bu esa baliq zahiralarning ko‘payishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi[1:5].

Asosiy suv havzalari Mo‘ynoq konserva kombinatiga birlashtirilgan edi. Qo‘ng‘irot baliq zavodi va boshqa baliq ovlash bilan shug‘ullanuvchi sanoat korxonalari ham faoliyat yuritardi, biroq ularda baliqchilik tarmog‘iga juda katta zarar yetkazilardi. Masalan, Mo‘ynoq baliq konserva zavodida baliqlarni maydalashda zog‘ora baliqning boshi ozuqa unini tayyorlash uchun nooziq-ovqat chiqindilariga tashlangan. Zog‘ora baliqning boshida «gipofiz» deb ataluvchi qimmatli mahsulot borligi fanda aniqlangan. Zog‘ora baliqning gipofizi baliqchilikda baliqlarning jinsiy yetilishini

rag‘batlantirish uchun, ya‘ni sun‘iy baliq yetishtirishda karpsimon baliqlarning ikrasi va sutining yetilishini tezlashtiruvchi gormon sifatida qo‘llaniladi. 1970-yilning boshida bu yo‘nalishdagi ishlar faol olib borildi va yilning birinchi yarmida 70 ming dona gipofiz olindi, qo‘shimcha ravishda 21 ming so‘mlik qimmatbaho mahsulot ishlab chiqarildi [3:4]. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, bu yillarda ilonbosh baliqlar soni keskin ko‘payib, boshqa baliq turlari (mo‘ylovdor, cho‘rtan baliq) soni kamayib ketgan.

Qoraqalpog‘iston partiya qo‘mitasi va respublika hukumati Orol dengizining ikki metr dan ortiq sayozlashgani sababli Mo‘ynoq va Qozog‘iston ko‘rfazlarida kema qatnovi to‘xtatilganini, buning natijasida Mo‘ynoq baliq-konserva kombinatining barcha baliq zavodlari sanoat hududlaridan uzilib qolganini ta‘kidladi. Vujudga kelgan sharoitda xom baliqni qabul qilish va uning sifatini yomonlashtirmagan holda sanoat hududlaridan baliq zavodlari va konserva zavodiga tashishni ta‘minlay oladigan yagona transport yer usti transporti, ya‘ni avtorefrigeratorlar edi. Mo‘ynoq tumanining transport aloqalarini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston SSR hukumati 1971-yildan boshlab Qo‘ng‘irot dan Mo‘ynoqqacha taxminan 100 km masofada qora qoplamali avtomobil yo‘lini qurishga ruxsat berdi. Bu Mo‘ynoq tumaniga Qo‘ng‘irot - Beyneu temir yo‘l magistraliga, so‘ngra mamlakatning markaziy tumanlariga chiqish imkonini berdi, bu esa Mo‘ynoq baliq-konserva kombinatiga yil davomida barcha turdagi tayyor mahsulotlarni avtorefrigeratorlarda eksport qilish imkonini berdi.

1980-yil 27-avgustda Qoraqalpog‘iston partiya qo‘mitasi va QQASSR Vazirlar Kengashi «Qoraqalpog‘iston ASSRda baliqchilikni yanada rivojlantirish va baliq ovlashni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Qarorda ko‘rsatilishicha, 1959-yildan boshlab Orol dengizi sathi tobora pasayib bormoqda, natijada baliq zahiralari kamayib, bu baliqchilar daromadiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Respublika hukumati rejani faqat kollektor suvlari bilan chuchuklashtirilayotgan

Sudoche ko'li hamda Mo'ynoq va Jaltirbos ko'rfazlarida baliqlarni sun'iy ravishda dengizdan ajratib ko'paytirish orqaligina bajarish mumkinligini tan oldi. «Biroq, baliqchilik xo'jaligi obyektlarini qurish sur'atlari talabga javob bermaydi, - deyiladi qarorda. Shunday qilib, Mo'ynoq qo'ltig'ida ko'l-tovar xo'jaligi qurilishi boshlangan uch yil ichida 3 million rubl smeta bo'yicha atigi 800 ming rubl mablag' ajratildi. Qurilishni O'zSSR Davlat baliq xo'jaligining zarur yer qazish texnikasi bilan ta'minlanmagan Mo'ynoq PMK olib bormoqda. Loyiha hujjatlaridagi xatolar tufayli qurilishda yaroqsizlikka yo'l qo'yiladi»[4:89].

Amaldorlarning baliqchilikka bunday munosabati davlatning umuman ekologiya va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tavsiflab beradi. Tabiiy resurslardan ayovsiz foydalanishdan daromad olish, tabiatga bepisandlik bilan qarash, tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga e'tibor bermaslik, korrupsiya va qo'shib yozishlar oxir-oqibatda nafaqat baliqchilikni, balki butun Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni inqirozga olib keldi. 1983-yilga kelib O'zSSR suv havzalarining baliqchilik xo'jaligi fondi Orol dengizining janubiy qismi (28000 kv km), ko'llar (277,7 ming gektar), suv omborlari (51,7 ming gektar), daryolar (4688 km), sug'orish kanallari va kollektorlar (13443 km)dan iborat edi [5:13]. 1982-yilda Mo'ynoq baliqchilik sanoati ishlab chiqarish birlashmasi tarkibida loyihaviy quvvati yiliga 3025 tonna tovar baliq yetishtirish uchun mo'ljallangan hovuz xo'jaligi qurilib, foydalanishga topshirildi.

1980-yillarning o'rtalarida Mo'ynoq baliq konserva kombinati 18 turdagi konservalar ishlab chiqargan. 1987-yilning 9 oyida 1986-yilning shu davriga nisbatan 371 ta va joriy yil rejasiga nisbatan 954 ta ko'p baliq konservasi ishlab chiqarildi. 1987-yilda assortiment bo'yicha «Sardina s garnirom», «Skumbriya», «Sazan», «Sudak», «Tolstolobik», «Melkiy pastik», «Xek» konservalarini ishlab chiqarish rejasiga bajarilmadi. Assortiment bo'yicha rejaning bajarilmasligi xom baliq yetishmasligi bilan izohlandi. Rejaning umumiy bajarilishi esa boshqa turlar bo'yicha rejaning oshirib bajarilishi hisobiga

amalga oshirildi. Mo'ynoq konserva ishlab chiqarishining rejadagi quvvati yiliga 13,9 mln shartli banka, 1986-yilda 15,4 mln shartli banka, 1987-yilning 10 oyida 13,3 mln shartli banka, rejadagi 12,1 mln edi. Rejadagi quvvatlar ikki smenali ish rejimiga mo'ljallangan edi, biroq qovurish pechining unumdorligi soatiga 2,7 mln qutini tashkil etadi, bunday unumdorlikda qovurish pechi korxonada quvvatini ta'minlay olmaydi, shuning uchun ish rejimi uch smenali bo'ldi [6:11]. 1987-1988-yillarda suv ta'minoti yetishmasligi sababli Mo'ynoq ishlab chiqarish birlashmasining 1200 gektar yaylov maydonidan o'rtacha 400 gektari, ya'ni 33 foizigina baliqlantirilgan. Shu bois hovuz baliqlarini ovlash rejasiga 1986-yilda 38 foizga, 1987-yilda esa 42 foizga bajarilgan, quvvatlardan foydalanish darajasi esa atigi 11,2 foizni tashkil etgan. Shuni ta'kidlash lozimki, ishga tushirilgan kundan boshlab hovuz maydonlarining qariyb 70 foizi faoliyatsiz qolgan.

XULOSA. 1970-yillarning o'rtalaridayoq O'zSSR Baliq xo'jaligi davlat qo'mitasi Orol baliqchilik flotini konservatsiya qilish masalasini ko'targan, hatto baliqchilik kemalarini boshqa hududlarga ko'chirish masalasi ham muhokama qilingan, ammo kemalarning katta o'lchamlari va sezilarli moliyaviy xarajatlar tufayli bu g'oyadan voz kechilgan. Bu davr Orol dengizida baliqchilikni tashkil etishda yangi ilmiy yondashuvlarni talab qildi, hukumat qarori qabul qilindi, biroq paxtachilikni rivojlantirish va yangi yerlarni sug'orish Orol dengizining baliqchilik ahamiyatini asta-sekin yo'qotishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shteyngart M. Tleubergenov Sh. Qaraqalpaqstandagi baliqshilik kolxozlarining ekonomikalik masalalari. – Nukus, 1960.
2. QR MDA, R-551- fond, 2- ro'yxat, 2704-ish, 53-varaq.
3. QR MDA, R-551-fond, 2-ro'yxat, 2121-ish, 4-varaq.
4. O'zR MA, 837-fond, 41-ro'yxat, 5363-ish, 89-varaq.
5. O'zR MA, 837-fond, 41-ro'yxat, 6177-ish, 13-varaq.
6. QR MDA, R-177-fond, 1-ro'yxat, 2563-ish. 11-varaq.